

Axborot tahlil, Ijro intizomi va Murojaatlar bilan ishlash yo'nalishi

1) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi 140-son Qarorining asosiy maqsadi nimalardan iborat va u qanday hujjatlarni tasdiqlagan?
2) "Tashkilot"larda ish yuritishning umumiy qoidolari va hujjatlar bilan ishlash uchun kimlar javobgar ekanligi Namunaviy yo'riqnomada qanday belgilangan?
3) Boshqaruv faoliyatini hujjatlashtirishda hujjatlar tarkibi va shakllari qanday belgilanadi, hamda tarmoq tabellarini ishlab chiqishning ahamiyati nimada?
4) Jo'natiladigan va ichki hujjatlarni tuzish hamda rasmiylashtirishga oid qanday umumiy talablar belgilangan, xususan, ularning mazmuni va shakliga nisbatan?
5) Hujjatlarga sana qo'yish va ularni imzolash tartibi qanday belgilangan, hamda imzolovchilarning javobgarligi qanday ifodalanadi?
6) Hujjat loyihalarini kelishish jarayoni va uning rasmiylashtirilishi qanday tartibda amalga oshiriladi, shu jumladan ichki va tashqi kelishuvlar?
7) Hujjatlarni tasdiqlash tartibi qanday, hamda tasdiqlovchi ustxat qanday elementlardan iborat bo'ladi?
8) Hujjat nusxalarini tayyorlash va tasdiqlash tartibi qanday, va tashkilotlar qanday hollarda hujjat nusxalarini berishi mumkin?
9) Kiruvchi xat-xabarlarni qabul qilish, dastlabki ishlash va ularni manzilli yetkazish tartibi qanday amalga oshiriladi?
10) Hujjatlarni ijrochilarga berish va jo'natish tartibi qanday, hamda bu jarayonda qanday muddatlar va talablar belgilangan?
11) Hujjatlarni ro'yxatga olish va indekslash qoidolari qanday, hamda bu jarayonda qanday ma'lumotlar qayd etiladi?
12) Hujjatlarning ijro etish muddatlari qanday hisoblanadi va Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari uchun qanday muddatlar belgilangan? Qonun loyihalariga xulosa berish muddatlarichi?
13) Yig'majildlar nomenklaturasi nima va u qanday tuziladi? Uning asosiy maqsadi nima?
14) Hujjatlar yig'majildlarini shakllantirish tartibi va bu jarayonda rioya qilinishi kerak bo'lgan asosiy qoidalar qanday?

15) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmonining qabul qilinishiga sabab bo‘lgan asosiy muammolar nimalardan iborat edi?
16) PF-6166-son Farmonga ko‘ra, Adliya vazirligining "Ijro.gov.uz" tizimidagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
17) PF-6166-son Farmonga asosan, Vazirlar Mahkamasining "Ijro.gov.uz" tizimidagi nazorat va hisobdorlik bo‘yicha vazifalari nimalardan iborat?
18) PF-6166-son Farmonga ko‘ra, Hisob palatasining "Ijro.gov.uz" tizimidagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
19) PF-6166-son Farmonga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining "Ijro.gov.uz" tizimidagi vazifalari qanday?
20) PQ-5132-son Qarori qanday maqsadda qabul qilingan va u "Ijro.gov.uz" tizimining rolini qanday mustahkamlagan?
21) "Ijro.gov.uz" tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashning yetti bosqichli tartibini tushuntiring.
22) PQ-5132-son Qaror bilan tasdiqlangan vaqtinchalik nizomga ko‘ra, Adliya vazirligining markaziy apparati va hududiy bo‘linmalari "Ijro.gov.uz" tizimida hujjatlar ijrosini tashkil etishda qanday mas’uliyatlarga ega?
23) Davlat organlari va tashkilotlari "Ijro.gov.uz" tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijrosini qanday tashkil etadi, xususan, markaziy apparat va hududiy bo‘linmalar misolida?
24) Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari, tuman va shahar hokimliklari) "Ijro.gov.uz" tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijrosini qanday tashkil etadi?
25) Xo‘jalik birlashmalari "Ijro.gov.uz" tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijrosini qanday tashkil etadi, xususan, markaziy apparat va hududiy bo‘linmalar misolida?
26) Ijro.gov.uz" tizimi orqali qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro muddatlarini uzaytirish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
27) "Ijro.gov.uz" tizimidan foydalanishni texnik jihatdan tashkil qilishda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (AKTV) va "UNICON-SOFT" (operator)ning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

28) "Ijro.gov.uz" tizimida davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalari faoliyatini baholash qanday ko‘rsatkichlar asosida amalga oshiriladi?
29) O‘zbekiston Respublikasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibini belgilovchi asosiy qonunchilik hujjatlarining maqsadi va amal qilish sohasi nimalardan iborat?
30) Murojaatlarning asosiy shakllari va turlari nimalardan iborat va ularning ahamiyati qanday? Shuningdek, murojaatlar turli xil qabul qilish kanallari orqali kelib tushganda qanday tartibda rasmiylashtiriladi?
31) Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatida qanday majburiy ma’lumotlar ko‘rsatilishi shart, va murojaatga qo‘shimcha ravishda yana nimalar ilova qilinishi mumkin?
32) O‘zbekistonda jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari va tashkilotlariga murojaat qilish huquqlarini amalga oshirish bo‘yicha qanday kafolatlar mavjud?
33) Murojaatlarni ko‘rib chiqishda davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari rioya etishi shart bo‘lgan asosiy prinsiplar nimalardan iborat?
34) Murojaatlarni davlat organlari va tashkilotlariga berish muddatlari bo‘yicha umumiy qoidalar qanday? Agar murojaatni berish muddati uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan bo‘lsa, uni tiklash mumkinmi?
35) Jismoniy yoki yuridik shaxs o‘zining murojaatini uning ko‘rib chiqilishi jarayonida chaqirib olish huquqiga egami? Agar shunday bo‘lsa, bu qanday tartibda amalga oshiriladi va murojaatni chaqirib olishning qanday oqibatlari bor?
36) Davlat organlari va tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etishning asosiy tamoyillari va bu jarayonda alohida bo‘linmaning roli qanday?
37) Davlat organlari va tashkilotlarining murojaatlar bilan ishlash bo‘linmasi xodimlariga qanday qo‘shimcha talablar qo‘yiladi? Ular o‘z xizmat vazifalarini bajarishda qanday axloqiy va kasbiy normalarga amal qilishlari kerak?
38) Davlat organlari va tashkilotlari murojaatlar bilan ishlash jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan qanday foydalanishi mumkin va buning asosiy kanallari qaysilar?
39) Davlat organlari va tashkilotlarida yozma va elektron murojaatlarni ro‘yxatga olish jarayoni qanday amalga oshiriladi? Ro‘yxatga olish paytida qanday ma’lumotlar qayd etiladi?
40) Murojaatda ko‘tarilgan masalalarni hal etish bir nechta tarkibiy bo‘linmalar yoki davlat organlarining vakolatiga kirganda, bunday murojaatlar qanday tartibda ko‘rib chiqiladi?

41) Murojaatni to'liq va xolisona ko'rib chiqish uchun davlat organlari va mansabdor shaxslar qachon qo'shimcha ma'lumotlar so'rab olishlari mumkin? Bunday ma'lumotlarni taqdim etish muddati va unga qo'yiladigan cheklovlar qanday?
42) Bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan aynan bir murojaatning dublikati yoki takroriy murojaat kelib tushganda, ular qanday tartibda ko'rib chiqiladi?
43) Qo'yilgan masalalarni hal etish o'z vakolati doirasiga kirmaydigan davlat organi yoki tashkilotiga kelib tushgan murojaatlar qanday tartibda boshqa organlarga yuboriladi? Bu jarayonda qanday taqiqlar mavjud?
44) Murojaatlarni joyning o'zida ko'rib chiqish qachon va qanday tartibda amalga oshirilishi mumkin?
45) Murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari qanday hisoblanadi va agar muddatning oxirgi kuni dam olish yoki bayram kunlariga to'g'ri kelsa, nima bo'ladi? Ommaviy qabullarda joyida hal etilgan og'zaki murojaatlarning ro'yxatga olinishi va hisobga olinishiga oid istisnolar mavjudmi?
46) Ariza, shikoyat va takliflarni ko'rib chiqish uchun qanday asosiy muddatlar belgilangan? Bu muddatlar qachon va qanday tartibda uzaytirilishi mumkin?
47) Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qaror qabul qilinganda, bu haqda murojaat qiluvchiga qanday tartibda xabar beriladi? Javob xatining mazmuniga qanday talablar qo'yiladi va u kim tomonidan imzolanadi?
48) Jismoniy yoki yuridik shaxslarning jamoaviy murojaatlari qanday tartibda ko'rib chiqiladi va ularga javob qanday yuboriladi?
49) Jismoniy yoki yuridik shaxs murojaatga berilgan javobni tushuntirish yoki undagi xatolarni tuzatishni so'rash huquqiga egami? Bunday iltimos qanday muddatda ko'rib chiqiladi?
50) Murojaat qachon to'liq ko'rib chiqilgan hisoblanadi va bu haqda qanday yozuvlar qayd etiladi?
51) Davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishni tashkil etish tartibi qanday? Sayyor va ommaviy qabullarning ahamiyati nimada?
52) Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari video-konferens-aloqa vositasida murojaat berish uchun qanday talabnomalar taqdim etishlari kerak va bu jarayon qanday amalga oshiriladi?
53) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasining asosiy vazifalari nimalardan iborat? Ularning faoliyati aholining murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirishda qanday rol o'ynaydi?

54 Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun qanday javobgarlik choralari belgilangan va bu qoidalarga rioya etilishi uchun kim mas’ul? Murojaatchiga yetkazilgan zarar qanday qoplanadi?

Marketing, autsorsing va DXShni rivojlantirish bo‘limi
SAVOLNOMASI

1. Budget ssudasi nima?
2. Qaysi hollarda xususiy sherikka subsidiya ajratilishi rad etilishi mumkin?
3. Qaysi holatda DXSh loyihasida LBH tayyorlash talab etilmaydi?
4. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishni rad etish uchun nimalar asos bo‘ladi?
5. Qanday holatlarda davlat sherigi talabgor bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralarga kirishishi mumkin?
6. Universal, stritbol va vorkaut sport maydonchalarini 2030-yilga qadar tashkil qilishning umumiy parametrlariga o‘zgartirish kiritish tartibi qanday?
7. DXSh loyihasining konsepsiyasi nima?
8. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari qaysi mablag‘lar hisobiga moliyalashtirib boriladi?
9. Davlat hususiy sheriklikning maqsadi nima ?
10. Sport marketingining vazifalari nimalardan iborat?
11. Sport vazirligi tomonidan barpo etiladigan sport maydonchalarining qurilish tartibi qanday?
12. Nodavlat sport-ta’lim muassasalari uchun belgilangan imtiyozlarni sanab bering.
13. Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim qaysi hollarda bir tomonlama bekor qilinishi mumkin?
14. Davlat sherigi doimiy foydalanish huquqiga ega bo‘lmagan yer maydonlarida DXSh sub’ekti bo‘la oladimi? Javobingizni asoslab bering.
15. Davlat-xususiy sheriklik deganda nimani tushunasiz?

16. Qaysi hollarda Sport vazirligi tasarrufidagi sport maktablari va ixtisoslashtirilgan sport maktablarining suzish havzalari elektron ommaviy savdolarga chiqariladi?
17. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan va uning mazmuni?
18. Davlat-xususiy sheriklik ob'ekti deganda nimani tushunasiz?
19. Loyihani baholash hujjati qanday xujjat?
20. Davlat-xususiy sheriklikning asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
21. Davlat-xususiy sheriklik ob'ekti deganda nimani tushunasiz?
22. Xususiy sherik kim bo'lishi mumkin?
23. Davlat sherigi kim bo'lishi mumkin?
24. Xususiy sherikning bankrotligi yuz bersa nima bo'ladi?
25. DXSh loyihalarini monitoring qilish kimning vakolatiga kiradi?
26. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom haqida gapirib bering.
27. DXSh loyihasining konsepsiyasi va loyihani baholash hujjatidagi ma'lumotlar uchun kimlar javobgar hisoblanadi?
28. DXSh to'g'risidagi bitim loyihalarini kelishish tartibi haqida gapirib bering?
29. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq tanlov g'olibi qanday aniqlanadi?
30. DXSh to'g'risidagi bitim loyihasini amalga oshirishda risklarni taqsimlash qanday belgilanadi?

Yuridik bo‘lim, Strategik rejalashtirish va metodologiya bo‘limlaridagi vakant lavozimlar uchun nomzodlarga beriladigan savollar
1) O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan va unda jismoniy tarbiya va sportga oid qanday normalar belgilangan?
2) Sport vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari haqida gapirib bering va ushbu ustuvor vazifalar qaysi hujjatda belgilangan?
3) “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida gapirib bering.
4) “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qaysi yo‘nalishlardan iborat va nechta maqsadni qamrab olgan?
5) “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida jismoniy tarbiya va sport sohasi bilan bog‘liq qanday maqsadlar belgilangan?
6) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning qanday shaxsiy huquq va erkinliklari belgilangan?
7) Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari qaysi holatlarda ko‘rmay qoldiriladi, qaysi holatlarda tugatiladi?
8) O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining bo‘linishi prinsipi haqida ma’lumot bering?
9) O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ hujjat qaysi va unga asosan vazirlikning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
10) Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari haqida ma’lumot bering?
11) Normativ-huquqiy hujjatlarning o‘zaro nisbati deganda nimani tushunasiz?
12) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosiy prinsiplari haqida gapirib bering?
13) Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlariga nimalar kiradi hamda ushbu asosiy yo‘nalishlar qaysi normativ hujjatda belgilangan?

14) Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash qanday tartibda amalga oshiriladi.
15) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi haqida gapirib bering?
16) Idoraviy normativ-huquqiy hujjatni davlat ro'yxatidan o'tkazish qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
17) Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga rasmiy sharh berish tartibi haqida gapirib bering
18) Konstitutsiyadagi "har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli", degan normaning mazmun mohiyati nimadan iborat?
19) Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi to'g'risidagi qoidani belgilash nima uchun zarur?
20) Yuridik xizmat xodimining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishdagi ishtiroki qanday?
21) Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari qaysilar va bu qaysi hujjatda belgilangan?
22) Yuridik xizmat xodimini stajirovka o'tash va malakasini oshirish tartibi haqida gapirib bering.
23) Normativ-huquqiy hujjatlarning o'zaro nisbati deganda nimani tushunasiz?
24) Normativ-huquqiy hujjatga rasmiy sharh berish tartibi haqida batafsil ma'lumot bering.
25) Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish tartibi haqida gapirib bering.
26) Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi deganda nima tushunasiz va korrupsiyaga qarshi ekspertiza kim tomonidan o'tkaziladi?
27) Vazirlik, idoralar tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarga huquqiy vorislik deganda nimani tushunasiz?

28) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning qanday siyosiy huquqlari belgilangan?
29) O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati qanday qoida va normalarga asoslangan?
30) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq fuqarolarning burchlari nimalardan iborat?
31) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirish tartibi.
32) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar qanday tartibda kiritiladi?
33) Kimlar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega?
34) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qanday hujjatlar qabul qilinadi?
35) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq sud tizimi haqida gapirib bering.
36) Yuridik shaxs tushunchasi va turlari. Uning huquq layoqati haqida gapirib bering.
37) Ishga qabul qilishda dastlabki sinov muddati tushunchasi va dastlabki sinov muddati kimlarga tatbiq etilmaydi?
38) Fuqarolik jamiyati institutlari deganda nimani tushunasiz?
39) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga qo‘yiladigan talablarni va saylash tartibini aytib bering.
40) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi va hukumat a‘zolarini shakllantirish tartibi.
41) “O‘zbekiston-2030” strategiyasi bilan vazirlikga qanday vazifalar yuklatilgan?
42) “O‘zbekiston-2030” strategiyasida Raqamlashtirish bo‘yicha asosiy maqsadlarni sanab bering.
43) Sohani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun dastlab qanday ishlar amalga oshiriladi?
44) Sohani strategik rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?

45) Tartibga solish tartibini baholash bo'yicha qisqacha ma'lumot bering.

Sport vazirligi Axborot xizmati bo'limi tomonidan shakllantirilgan savollar

Davlat ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkinmi?

Senzura nima?

Konstitutsiyaga muvofiq kimlar axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega?

Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquq cheklanishi mumkinmi?

Jurnalist kim?

Bloger kim? O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida blogerga ta'rif berilganmi?

Jurnalist tekshiruvi nima?

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot xizmati deganda nimani tushunasiz?

Rasmiy veb-sayt nima?

Axborot olishga doir so'rov deganda nimani tushunasiz?

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi foydalanilishi cheklangan axborot nima?

Axborot xavfsizligi deganda nimani tushinasiz?

Informatsion janrlarga nimalar kiradi?

Jahon matbuoti erkinligi kuni qaysi sanada nishonlanadi?

Matbuot anjumani nima?

Matbaa foliyatiga qaysi turdagi xizmatlar kiradi?

Tarjima mualliflik huquqining ob'ekti hisoblanadimi?

Ijtimoiy tarmoqlardagi postlar uchun javobgarlik bormi?

Fakt nima?

Qanday shaxslar ommaviy axborot vositalarining muassislari bo'lishi mumkin emas?

Jadidchilar tomonidan chop etilgan gazeta va jurnallarni sanab bering.
Mamlakatimizda matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunining aynan 27 iyun sanasida nishonlanishiga nima asos bo‘lgan?
Ommaviy axborot vositalari qanday hollarda axborot manbaini oshkor etishlari mumkin emas?
Ommaviy axborot vositalari orqali qanday maqsadlardan foydalanish taqiqlanadi?
Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari haqida qanday modda bor?
Qonunchilikda ommaviy axborot vositalari bozorini monopollashtirishga yo‘l qo‘yilmasligi haqida normalar bormi?
Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab qilinmaydigan ommaviy axborot vositalari qaysilar?
O‘zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi qachon tashkil topgan?
O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi qachon tashkil topgan?
Ommaviy axborot vositasi o‘zi nima?
Jurnalistlar va bloggerlar qaeirlarda videotasvirga olishi mumkin emas?
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risida ma’lumot olish uchun so‘rovni ko‘rib chiqish tartibi qanday?
Axborot xizmatiga qaysi qonunda, qanday tarif berilgan hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashda axborot xizmati qanday vazifani bajaradi?
Ommaviy axborot vositalarining qanday turlari mavjud?
Ommaviy axborot vositalari faoliyati qaysi qonunlar bilan tartibga solinadi (kamida 5 tasini sanab bering)?
Blogger tushunchasiga normativ-huquqiy hujjatlarda qanday ta’rif berilgan?
Jurnalist tushunchasiga normativ-huquqiy hujjatlarda qanday ta’rif berilgan?

Ommaviy axborot vositasi vakili yoki blogger tomonidan davlat boshqaruvi organi rahbarining intervyu berishini so‘rab yo‘llagan og‘zaki murojaati qancha muddatda ko‘rib chiqiladi?
Press-reliz nima? Press-reliz tayyorlash jarayonida nimalarga e‘tibor berish kerak?
OAVning akkreditatsiya qilingan vakillari qanday huquqlarga ega?
Kopirayting nima?
Jurnalistlar jurnalistik tekshiruv doirasida jinoiy ish materiallarini so‘rashga haqlimi?
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot manbalariga nimalar kiradi?
Vazirlik va idoralarning Ochiq hay‘at yig‘ilishlarida ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etishi mumkinmi? Mumkin bo‘lsa, bu qaysi hujjatda keltirilgan?
Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish qaysi normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi?
Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta‘minlashga mas‘ul bo‘lgan xodimlar faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarining muhimlarini sanab bering?
Davlat xizmatchilari OAV bilan ishlashda qanday hollarda ommaviy bayonot berishi mumkin emas?
Davlat xizmatchisi bergan bayonotida fuqarolarning sha‘ni hamda qadr-qimmatini kamsitadigan iboralar ishlatgan taqdirda qanday ishlar amalga oshiriladi?
Chet davlatlar ommaviy axborot vositalarining vakolatxonalarini va vakillarini akkreditatsiya qilish tartibi qaysi normativ-huquqiy hujjatda belgilangan?
OAVda tuhmat va haqorat qilganlik uchun qanday javobgarlik belgilangan?
Kimlar axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va saqlash huquqiga ega?

Axborot xizmati rahbari faoliyatini baholash bo'yicha mezonda matbuot anjumani va brifinglarda tashkilotning birinchi rahbari ishtirok etishi inobatga olinadimi?
Anons, press-reliz, press-kit va ma'lumotnomalarni tarqatishning yana qanday ilg'or usullari mavjud?
Press-pul tashkil etish va uning tarkibini shakllantirish tartibi qanday?
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son qaroriga ko'ra davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlarining asosiy vazifalarini sanab bering?
O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlarining asosiy vazifalarini sanab bering?
"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
"2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" yo'nalishlarida axborotga oid maqsadlar nimalardan iborat?
Chet davlatlar ommaviy axborot vositalarining vakolatxonalari va vakillarini akkreditatsiya qilish tartibi qaysi normativ-huquqiy hujjatda belgilangan?
Axborot erkinligining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?

Axborot erkinligi tushunchasiga ta'rif bering?
Axborot xavfsizligi nima? Uni ta'minlash sohasidagi davlat siyosati qanday amalga oshiriladi?
Normativ-huquqiy hujjatlarda shaxsga doir ma'lumotlarni axborot egasining ruxsatisiz ochiq qilgani uchun qanday javobgarlik belgilangan?
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida axborot, so'z erkinligi va ommaviy axborot vositalariga doir belgilangan normalarni aytib bering.
Ommaviy axborot vositasi nima va uning qanday turlari mavjud?
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborot manbalariga nimalar kiradi?
Qaysi Qonunda Axborot xizmatiga qanday ta'rif berilgan?
Ommaviy axborot vositalari faoliyati qaysi qonunlar bilan tartibga solinadi?
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rovni ko'rib chiqish tartibini aytib bering.
Inqirozli kommunikatsiya nima?
Inqirozli vaziyatlarda jamoatchilik bilan aloqalar qanday bo'lishi kerak?
Fakt-checking nima? Axborot xizmati faoliyatida fakt-checking nima maqsadda qo'llaniladi?
Brifing nima? U qachon tashkil qilinishi kerak?
Ommaviy axborot vositalari sohasida qanday mukofotlar, tanlovlarni bilasiz?
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti qachon tashkil etilgan?
Istiqlol davrida O'zbekistonda birinchi mustaqil gazeta qachondan chop etila boshlangan?

“weblog” (veb-log) atamasini kim va qachon birinchi muomalaga kiritgan?
“Vloger” atamasi qanday ma’noni anglatadi?
O‘zbekiston jurnalistlarining kasb etikasi kodeksi qachon qabul qilingan?
Globalashuv nima?
Qaysi hujjatlarda yolg‘on axborotni tarqatganlik uchun javobgarlik belgilangan?
Press-revizning qanday turlari mavjud?
Media kontent, mem, xeshteg tushunchalariga ta’rif bering?
Matbuot anjumani va brifingning o‘zaro farqi nimada?
Mediakit tushunchasiga ta’rif bering.
Jamoatchilik bilan aloqalar deganda nimani tushunasiz?

Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish yo'nalishida
“O‘zbekiston— 2030” strategiyasida xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish sohasida qanday ustuvor maqsadlar belgilangan
Davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar nimalardan iborat?
Davlat fuqarolik xizmatiga kirish tartibi va shartlari qanday?
“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun haqida aytib bering.
Konstitutsiyada yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish borasida qanday normalar belgilangan?
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq inson va fuqaroning shaxsiy huquqlari nimalardan iborat?
Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan va uning oldingi Konstitutsiyadan farqlari nimada?
Mehnat shartnomasi va shartnomaning mazmuni haqida aytib bering.
Mehnat shartnomasi muddatlari va ularni tuzish asoslari haqida tushuntirib bering.
Ish vaqti tushunchasi va turlarini aytib bering.
Korrupsiya nima? Korrupsiyaviy huquqbuzarlik va korrupsiyaviy jinoyatlar deganda nimani tushunasiz?
Ish vaqti rejimi nima va uni belgilash tartibi qanday?
Xodimni dam olish kunlari va ishlanmaydigan bayram kunlari ishga jalb qilish va uni rasmiylashtirish tartibini tushuntirib bering.
Mehnat ta’tilini berish tartibini tushuntirib bering.
Xizmat tekshiruvi nima va uni o‘tkazish asoslarini aytib bering.
Intizomiy jazo choralari va ularni qo‘llash tartibini tushuntirib bering.
Ish beruvchi tomonidan dastlabki sinov muddati belgilanmaydigan xodimlar toifasiga kimlar kiradi?

Kadrlar salohiyatini oshirish yo‘nalishidagi keyingi 3 yillik uchun rejalarangiz haqida aytib bering.
Jamoadagi sog‘lom muhitni saqlash uchun nimalarga e‘tibor berish lozim?
Xizmat tekshiruvini o‘tkazuvchi komissiyaning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat.
O‘ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o‘tkazilayotgan xodimning huquq va majburiyatlari haqida aytib bering.
Xizmat tekshiruvini o‘tkazish tartibini tushuntirib bering.
Ishni ta‘lim bilan birga olib boruvchi xodimlar uchun qanday kafolat va kompensatsiyalar belgilangan?
Mehnat kodeksida ayollarga berilgan imtiyozlar haqida aytib bering.
O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida aytib o‘ting.
Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida aytib o‘ting.
O‘rindoshlik asosida ishlovchi shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida aytib bering.
Jamoa shartnomasi haqida aytib bering.
Mehnat shartlari deganda nima tushuniladi, qaysi hollarda ish beruvchi mehnat shartlarini xodimning roziligisiz o‘zgartirishga haqli?
Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilish to‘g‘risida ogohlantirish berish tartibini tushuntirib bering.
Xodimlar va ish beruvchilarning vakillari haqida aytib bering.
Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklavlarni aytib bering.
Davlat fuqarolik xizmatiga kirish tartibi va shartlari qanday?
Davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar nimalardan iborat?
Davlat fuqarolik xizmatidagining rotatsiyasi nima?

Davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirish zaruriyati nima va uning qanday shakllari bor?
Davlat fuqarolik xizmatchisini huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish qay tartibda amalga oshiriladi?
Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini bo'yicha aytib bering.
Xodimning asosiy huquqlari nimadan iborat?
Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish asoslari haqida so'zlab bering?
Xodimni har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olish mumkinmi va agar mumkin bo'lsa qanday tartibda amalga oshiriladi?
Davlat fuqarolik xizmatchilarining xizmat faoliyatidagi va xizmatdan tashqari odob-axloq qoidalarini aytib bering.
Davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibini tushuntirib bering.
Ishga qabul qilish chog'idagi tanishtirish tartib-taomili bo'yicha aytib bering.
Ishga qabul qilish chog'idagi dastlabki sinov haqida aytib bering.
Mehnat shartnomasini o'zgartirish asoslarini tushuntirib bering.
Xodimni boshqa ishga o'tkazish qay tartibda amalga oshiriladi?
Xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish tartibini tushuntirib bering.
Xodimni ishdan chetlashtirish tartibini tushuntirib bering.
Mehnat shartnomasini bekor qilish va uning asoslarini tushuntirib bering.
Texnologiyaning, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o'zgarishiga, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarishiga bog'liq bo'lgan tashkilot (uning alohida bo'linmasi), yakka tartibdagi tadbirkor xodimlarining soni (shtati) o'zgarganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishda qoldirishga doir imtiyozli huquq kimlarga beriladi?

Mehnat shartnomasini taraflarning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra bekor qilish asoslarini aytib bering.

Vazirlik markaziy apparati ichki audit yo'nalishidagi vakant lavozimlariga hujjat topshirgan nomzodlarga suhbat jarayonida beriladigan savollar
1) Davlat moliyaviy nazorati prinsiplari to'g'risida tushuncha bering?
2) Davlat moliyaviy nazoratining qanday shakllari mavjud?
3) Davlat moliyaviy nazoratining turlari to'g'risida tushuncha bering?
4) Davlat moliyaviy nazoratini o'tkazish davriyligi va muddatlari to'g'risida tushuncha bering?
5) Nazorat tadbirlari natijalarida aniqlangan budjet va smeta-shtat intizomini buzish holatlari yuzasidan ko'riladigan choralar to'g'risida tushuncha bering?
